

## MATBUOT — SO‘Z SIYOSATINI IFODALOVCHI MINBAR SIFATIDA

Ulug‘bek Yo‘ldoshev

O‘zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Komunikatsiyalar Universiteti

**Annotatsiya:** Muallif ushbu maqolada Xalq so‘zi gazetasi misolida kontentlar va u bilan bog‘liq jarayonlar tahlilini amalga oshiradi. Tezkor va holislikka masullik asosida yondoshish bilan bir qatorda, bugungi kunda axborat uzatish tarkibiy jarayonni masalasida so‘z yuritadi, xabarlarini nashrda samarali qo‘llanilishi borasida takliflarini bildiradi

**Kalit so‘zlar:** matbuot, kontent, tahlil, axborat, dizayn, partiya

### Kirish va gipoteza

Axboriy jamiyatga soniya sayin chuqurroq kirib borayotgan dunyoda informatsiyaga egalik qilish masalasi, hatto rivojlangan davlatlarni ham o‘ylantirib qo‘ymoqda. Jurnalistikaning quroli axborot, sodda qilib aytganda xabarga bo‘lgan intilish pirovardida ulkan mafkuraviy kurashlarga debochalik qilayotir. Jurnalistlarni jamiyat ma‘naviyati va madaniyatining ajralmas qismi sifatida, shoirona qilib aytganda, “jamiyat tabibi” deb bilishadi. Xususan, XX asrda yashab ijod qilgan ajdodlarimiz orasidagi ijodkorlarimiz bu yuksak va o‘z o‘rnida mas‘uliyatli tashbehga arzigulik ishlarni amalga oshirolganidan hamon el yodida, xalq qalbida yashayapti.

Jamiyatimizda demokratik tamoyillar tobora chuqurlashgan sari siyosiy ijtimoiy jarayonlarning turli ko‘rinishdagi namoyishi va, ayniqsa, ta‘sir etish kuchi oshib boradi.

Darhaqiqat, hukumat vakillarining xalq ishonchini qozonishi, g‘oyalari va qarashlarini aholiga yetkazishda, fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning siyosiy-huquqiy ongini rivojlantirish va ularning bugungi tez o‘zgarayotgan xayot voqeligiga ongli munosabatda bo‘lib, mustaqil fikrlashi va mamlakatimizdagi islohotlar jaryoniga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashga o‘rgatishda OAVning o‘rni beqiyos.

Xo‘sh, partiya gazetalarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, ular faoliyatiga xolis baho berishda qaysi mezonlarga suyanish, qanday o‘lchovlarga asoslanish, qolaversa, nechog‘lik qat‘iyat va munosabat, ma‘naviyat huquq, kasbiy etika nuqtai nazaridan yondashish mumkin?

Albatta, har qanday davriynashr matbuot organining reytingi, ta‘sir samaradorligi, ijodiy faoliyat natijalari, oddiyoq qilib aytganda, o‘qishligini oxir-oqibat gazetxonlar auditoriyasi belgilaydi

### Muhokama

“Xalq so‘zi” ijtimoiy-siyosiy gazeta hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi muassisligida adadi 39 ming nusxadan ortiq, A2 formatda nashr etiladi. Nashr indeksi 229. Gazeta 1991 yil 1-yanvardan chiqa boshlagan. Gazeta 4 (ba‘zan 6,8) sahifada chop etilib, bosh sahifada qabul qilingan Qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, Farmonu, farmoyishlari berib boriladi.

Gazetaning “Davri”, “Jarayon”, “Ko‘zgu” kabi ruknlarida partiya hayotga oid ijtimoiy-siyosiy, axboriy va tahliliy materiallar berib boriladi. Gazeta muxbirlari Sh.Bo‘tayeov, D.Ulug‘murodov, Z.Ashurova, E.Ehsonov kabi ko‘plab yosh va iqtidorli muxbirlar tomonidan maqolalar tayyorlanib gazeta sahifalarida muntazam berib boriladi. Dunyo miqyosidagi qisqa xabarlar berib boriluvchi rukn “Biz va jahon” deb nomlanadi. Sahifada jahonda ro‘y

YULDOSHEV  
Ulugbek – lecturer,  
Department of  
Military and  
Sport Journalism,  
Journalism and Mass  
Communications  
University of  
Uzbekistan

ЮЛДОШЕВ Улуғбек  
— преподаватель  
кафедры военной и  
спортивной журна-  
листики Университета  
журналистики и  
массовых коммуни-  
каций Узбекистана

berayotgan muhim voqea, hodisalar yoritiladi. Maqolalar nafaqat gazeta muxbirlari, balki chet el mualliflari tomonidan ham e'lon qilinadi. "Biz va jahon" ruknida internetdagi "oldi-qochdi" yoki "ko'chirma" materiallar emas, balki dunyoda ro'y berayotgan muhim voqealarga milliy o'zligimiz va manfaatlarimiz nuqtai nazaridan bildirilgan munosabatlar gazetxonlarda iliq taassurotlar qoldiradi. Keyingi vaqtlarda auditoriyaning qiziqishlaridan kelib chiqib, gazetaning bosh sahifasida Prezident farmoyishlari, qarorlar, farmonlarga kelgusi sonda "Senator mushohadasi" rukni ostida Oliy Majlis deputati yoxud senator tomonidan sharh beriladigan bo'ldi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, bu sharhlar ham juda qisqa bo'lib, mohiyat keng ochib berilmagan. Shunchaki qisqa fikr bildirish bilan cheklanib qolayotganday, nazarimizda. Xalqchilik, ommaga yanada tushunarli bo'lishi uchun turli misollar va hayotiy dalillar yetishmayapti.

Gazetaning 2020 yil 23 may 108-sonida O'zA muxbirlari Matnazar Elmurodov, Ziyodulla Jonibekov, Faxriddin Ubaydullayevlarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 21-22 may kunlari Andijon viloyatida tashrifi haqidagi "Andijon milliy taraqqiyotimiz yo'lida yangi yondashuvlar, zamonaviy islohotlar maydoni bo'ladi" nomli maqolasi chop etildi. Unda Prezidentimizning Andijon viloyatiga qilgan rasmiy tashrifi tahlil qilinib, atroflicha izohlangan. Gazetani varaqlar ekanmiz, Prezidentimizning "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq "Kechirimlilik – oliy fazilat" nomli sharh berilganligini kuzatamiz. Unda aytilishicha, Muborak Ramazon hayitini nishonlash arafasida xalqimizga xos mehr-oqibat, ezgulik va xayru-saxovat singari oliyjanoblik fazilatlarining yorqin namunasi bo'lgan ushbu hujjat keng jamoatchilik vakillari, ayniqsa, afv etilganlar va ularning oila a'zolari tomonidan katta xursandchilik bilan kutib olindi.

"Xalq so'zi" gazetasida yurtimizning shonli tarixini, jumladan, millatimiz ma'naviy olamini, jahon ilmiy tafakkurining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimiz merosini o'rganishga ham e'tibor qaratilgan. Bu yo'nalishda ham maqolalar e'lon qilinayapti. So'nggi sahifa "Ko'zgu", "Bugunning gapi" deb nomlanib, undan asosan madaniyat xabarlari, xalq ijodiy hayotiga oid maqolalar o'rin olgan. Gazetaning yutuqlaridan biri shundaki, ayni bugungi qaynoq ijtimoiy-siyosiy hayot "sovumasidan" turli mavzulardagi maqolalar orqali yoritiladi. Masalan, 1, 2-sahifalardagi maqolalar yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. "Xalq so'zi" gazetasining 2020 yil 20 may kunidagi sonining ikkinchi sahifasi "Parlament hayoti" deb nomlanib, mazkur sahifadan "Xalqimizga to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlar kerak" nomli tahliliy maqola, Oliy Majlis Senati a'zosi Farxod Boqiyevning "Adolat tiklanganidan xursandmiz" nomli sharhi, jurnalist Ziyoda Ashurovaning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi rahbari Aktam Xaitov bilan "Sinovli kunlarda chetda turganimiz yo'q" deb nomlangan suhbatini chop etilgan. "Parlamentdagi muxbirimiz xabar qiladi" rukni ostida parlamentdagi jarayonlardan jurnalist (ko'pincha Ziyoda Ashurova) hikoya qiladi.

Ta'kidlash joizki, gazetaning 2019-2020 yillardagi sonlari tahlil qilinganda ancha qismini jamiyat hayotining siyosiy sohasiga bag'ishlanganligi aniqlandi. Ular orasida hukumat qarorlari, Prezident farmonlarini targ'ib qilishga qaratilgan tahliliy maqolalar alohida o'rin tutadi. Mazkur nashrni varaqlar ekanmiz, davlat dasturidagi maqsadlarga xizmat qiluvchi materiallarni ko'plab uchratdik.

Xususan, 2019 yilning 10-fevral 30-sonida “Xalq so‘zi” muxbirlari Ziyoda Ashurova, Zokir Xudoysukurov tomonidan Oliy Majlis deputatlari va senatorlardan yozib olingan “Mamlakatimiz rivojida yangi bosqich” nomli maqolasida “Harakatlar strategiyasi”ning dasturiy maqsadlari va g‘oyasini tahlil qilish, aholi orasida targ‘ib qilish, jamiyat a‘zolarining siyosiy-huquqiy bilimlarini yuksaltirish borasidagi fikr mulohazalari keltirilgan. Biroq maqolada faqat faktlargina asosiy o‘ringa chiqib, shaxsiy fikr, mulohaza va xulosa keyingi planga tushib qolgan.

Gazetaning “Ijtimoiy fikr” ruknida yurtdoshlarimizning fikr-mulohazalari o‘rganilib, berib boriladi. Xususan, “Navqiron avlodning qiziqish va qarashlari o‘rganildi” sarlavhasi ostida yoshlar, ular qiziqishlari o‘rganilgan maqola 2019 yil 10-fevral sonida berilgan. Bu ruknda “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi materiallari asosida har sonda turli mavzular yoritib boriladi. Bu esa matbuotdagi o‘ziga xos yangilik va quvonarli holat. Gazeta sahifasida yoritilayotgan maqolalarni o‘qish chog‘ida tadbir va uning ishtirokchilari to‘g‘risida yetarlicha ma‘lumotlar keltirilganligiga guvoh bo‘ldik. Biroq jurnalistik nuqtai nazaridan tahlil qilinmagan. Faqat ma‘lumotlar bilan cheklangan. Boshqa maqolalardan farqli jihati deyarli sezilmaydi, tahlil qilinmagan, bu turdagi maqolalarda umumiy fikrlar qamrab olingan. Jurnalist sharhiga ehtiyoj sezayapmiz. Turli ijtimoiy so‘rovnomalar, ijtimoiy tarmoqlarda yurtdoshlarimiz bildirayotgan fikrlardan jamoatchilik fikrini bilishimiz mumkin.

Bugun axborot shu qadar cheksizki, biz to‘yingan axborot makonida yashamoqdamiz. Bu jamiyatda bizga jurnalist pozitsiyasi, uning xolisona sharhlay olish qobiliyati muhim va ahamiyatli. Ammo bugun ayni shu jihatdan matbuotimizda oqsash kuzatilmoqda, nazarimizda.

#### **Xulosa va natijalar**

“Xalq so‘zi” gazetasi mamlakatimiz Konstitutsiyasi, qonunlar, me‘yoriy hujjatlar mohiyati, maqsadi, amaliy-nazariy va siyosiy-huquqiy jihatlarini targ‘ib qilish hamda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan ommabop nashrga aylanmoqda. Keyingi yillarda gazeta mundariyasi butunlay o‘zgardi. Yangi-yangi nomlar, yangi-yangi ruknlar bilan tinimsiz boyidi. Inson huquqlari himoyasi, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash borasidagi qilinayotgan ulug‘vor ishlar gazetaning asosiy mavzusiga aylandi. Bu sa‘yi-harakatlar, o‘z navbatida, omma orasida gazetaning obro‘-e‘tibori oshishi, muxlislari soni ortishiga olib keldi. Bunga tahririyat mustahkam moddiy-texnik bazaga egaligi hamda barcha xodimlarning zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta‘minlanganligi yorqin misol bo‘ladi. Tahririyat keyingi ikki yil ichida salmoqli yutuqlarga erishdi. O‘rganilgan materiallar, tahlillar natijasida quyidagi xulosalarni keltirib o‘tamiz.

“Xalq so‘zi” gazetasida ijtimoiy-siyosiy mavzular tasnifi quyidagicha ko‘rinishda bo‘lib, turli janrdagi materiallar orqali yoritiladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, farmoyishlari, Qarorlari mazmuni va ijrosi bo‘yicha materiallar;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar mazmuni, sharhi va ularning ijrosi bilan bog‘liq materiallar;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar va ularning ijrosi bo‘yicha materiallar;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ichki va tashqi siyosat doirasida olib borilayotgan ishlar mazmuni va Prezidentning xorijiy safarlari tafsilotlari bilan bog‘liq materiallar;

- O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining joylardagi ijrosi, va ular yuzasidan hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha materiallar;
- Ijtimoiy himoya, fuqarolar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, tibbiyot, ta’lim sohasidagi islohotlar, tadbirkorlar, ziyolilar, fermer xo‘jaliklari, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalar bo‘yicha materiallar;
- Davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarga jurnalistlar va oddiy fuqarolar tomonidan bildirilgan munosabat bo‘yicha materiallar
- O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi va uning faoliyati bilan bog‘liq materiallar va hokazo.

E‘lon qilinayotgan materiallar janr jihatdan xilma-xil va asosan axborot janrlaridan – xabar, kengaytirilgan xabar, hisobot, intervyu, korrespondensiya; tahliliy janrlardan esa maqola, sharh kabilardan unumli foydalaniladi.

“Xalq so‘zi” gazetasining tili va uslubi o‘ziga xos bo‘lib, quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tish mumkin:

- materiallarga tanlangan sarlavhalar asosan darak gap ko‘rinishida, shuningdek, so‘z birikmasi shaklida ham uchraydi;
- gazetada bir xillik va qoliplashgan ifodalar ko‘p uchraydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda berilgan takliflar asosida nashrni bugungi tezkor zamonda auditoriyasini nafakat sifatli kontent bilan taminlash bilan cheklanib qolmasdan balki mushtariylar sonini yanada oshishiga xizmatqilishiga ham zamin yaratiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

Mirziyoyev, Sh. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2017. PQ-3271. Toshkent. 13.09.2017 y.

O‘zbekiston Milliy Universiteti. 2008. Audiovizual jurnalistikaning dolzarb muammolari. Ilm.maq.to‘p. Toshkent.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot va Ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrigidan. 2017.

Qosimova, N. 2010. Internet jurnalistikaning texnologik asoslari. Toshkent, 60-bet  
Баркер, Р. Эскарпи Р. 1979. Жажда чтения. Москва. Книга, 208 б.

Василина, Д. С. 2014. Современный тип трансляции культуры. Культура и образование. Сб. статей. Вып.14. под ред. В.Л. Бенина. Уфа. Изд-во БГПУ, 182 б.

#### **Muallif haqida:**

YULDOSHEV Ulug‘bek – O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “Harbiy va sport jurnalistikasi” kafedrasi o‘qituvchisi  
ulugbekyuldoshev777@gmail.com

PRESS AS A PUBLIC EXPRESSION OF POLICY

Ulugbek Yuldoshev

Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan

**Abstract:** In this article, the author analyzes the content and related processes in the example of “Xalq suzi” newspaper. In addition to a responsible approach to speed and objectivity, today’s information transmission speaks about the structural process and suggests the effective use of messages in the publication.

**Key words:** press, content, analysis, information, design.

ПРЕССА КАК ПУБЛИЧНОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ПОЛИТИКИ

Улугбек Юлдошев

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

**Аннотация:** Автор анализирует содержание газеты «Халк сузи», отмечает стремление к оперативности и достоверности и вносит предложения по более эффективному использованию актуальной информации.

**Ключевые слова:** пресса, контент, анализ, информация, дизайн